

TALABALARIGA MUSIQA DARSLARIDA MILLIY QADRYATLARNI SINGDIRISHNING O'ZIGA XOS USLUBLARI

Qahramon Boboqulov,

Jizzax Davlat pedagogika instituti

Musiqiy ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarga musiqa fani orqali milliy qadriyatlarni singdirishdan asosiy maqsad talabalarda kasbiy musiqa janrlarini bilish, o'zbek maqomlari tarixini o'rganish, maqom yo'llarining nota yozuvlari, eng muhim tarixiy, nazariy va ijrochilik masalalari kabi mavzularni bilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa, qadryat, innovatsion uslublar, talabalar, Forobiy, Jomiy, Alisher Navoiy, Fitrat

Oliy ta'lim dargohida talabalarda musiqa darslari milliy qadriyatlarni shakllantirish borasidagi chora-tadbirlar bilan birgalikda olib borilishi lozim. Chunki, inson jamiyat a'zosi sifatida, u doimo turli gurux va jamoalarning vakili sifatida ma'naviy-ma'rifiy ta'sirlar ostida bo'ladi. Ya'ni, xar bir shaxsning fe'l-atvorida, xatti-harakatlarida u mansub bo'lgan millat, xalq, professional toifa, jamoa va oilaning ijobiy yoki salbiy ta'siri bo'ladi. Tarixiy shart-sharoit, davr, jamiyatdagi ma'naviy-ma'rifiy muhit va milliy qadriyatlarga oid ta'sirlar yoshlarning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, tafakkurida o'z aksini topadi.

Yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashda jamiyatda belgilanadigan dasturiy vazifalar va olib boriladigan muhim ustivor chora-tadbirlar yuqori dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyov o'zining Oliy Majlisga murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu bois, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash,

ular da tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o‘ta sharafli vazifadir”.

Umuman, tarixdan ham ma’lumki, kaysi davlat va mamlakatni olmaylik, jamiyatda inson ma’naviyatini shakllantiradigan muhit uning turli darajalarda ma’rifiy va ruhiy olamning qiyofasi, o‘zi oladigan

tarbiya va ta’limning asoslariga bog‘liq bo‘lib kelgan. Davrimiz yoshlarining imkoniyatlari va imtiyozlari shundayki, unda ularning har biri o‘zining erkin mehnati bilan tinimsiz izlanishlarisiz jamiyatda ma’lum ijodiy bosiqichlarga erishib bo‘lmaydi. Chunki hozirgi raqobat va globallashuv davrida ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashda ijodiy ong va san’atning roli beqiyosdir.

Xalq e’tiqodi va uning ijodiy ruhi shunday qudratli ta’sir kuchiga egaki, u har bir sog‘lom fikrlovchi insonni ijodiy faoliyatga, kasbi- korning halol bo‘lishiga zamin yaratadi. O‘zbek xalqi ana shunday ilohiy marhamatga sazovor bo‘lgan, uz milliy e’tiqodiga ega millatlardan biridir. Buni biz buyuk insonlar, mutafakkirlar timsolida ko‘rsak bo‘ladi. Chunki, xalq ruhi va undagi e’tiqodni millatning eng ilgor vakillari, mutaffakkirlar ifoda etadi. Masalan, Forobiy, Jomiy, Alisher Navoiy, Fitrat kabi allomalarning ijodi xam xalq e’tikodining o‘lmas namunasi dir.

Tarixdan ma’lumki, yer yuzida yashovchi barcha xalqlarning o‘z madaniyati va san’ati, shuningdek, musiqiy madaniyati mavjud bo‘lib, ularning ma’naviy boyligi hisoblangan. Ayniqsa, Sharq xalqlarining musiqiy madaniyati har bir xalq milliy musiqasining asosini tashkil etgan, nazariy va amaliy ijrochilik maktabiga ega bo‘lgan. Sharq xalqlarining musiqiy boyligi bo‘lgan maqom va musiqiy ijrochilikning boshqa aniq turkumlari turli davrlarda turli ko‘rinish va yo‘nalishlar bilan ijro etilib kelingan va rivojlangan. Madaniy rivojlanish o‘z navbatida musiqa san’atining taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatgan. A.Avloniyning ta’kidlashicha, “Taraqqiy qilgan millatlarning hunar va san’atlarining barchasi ilmi va nazari ibrat soyasida namoyon o‘lib, olamni munavvar va musaxxar qilmishlar”.

Talabalarga musiqa fani orqali milliy qadriyatlarni singdirishdan asosiy maqsad talabalarda kasbiy musiqa janrlarini bilish, o‘zbek maqomlari tarixini o‘rganish, maqom yo‘llarining nota yozuvlari, eng muhim tarixiy, nazariy va

ijrochilik masalalari kabi mavzularni bilishga qaratilgan. Musiqa fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iborat. Ayrim mavzularga doir muloqotlar o'tkazish, suhbatlar uyushtirish, musiqiy namunalarni tahlil etish va tinglash, katta hajmli mavzular o'tib bo'lgandan so'ng, semestr yakunlarida turli xil shakllarda sinov darslarini o'tkazish tavsiya etiladi.

Musiqa darslarida milliy qadriyatdarni singdirishda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

- turli xil davrlarga xos bo'lgan musiqa adabiyotlarini;
- o'zbek xalqi hayotining turli tarixiy davrlaridagi eng muhim musiqiy-tarixiy jarayonlarni;
- rang-barang cholg'ularni, boy ijrochilik an'analarni;
- og'zaki kasbiy mumtoz musiqasi hamda hozirgi zamon O'zbekiston kompozitorlik ijodiyotini;
- o'zbek an'anaviy ashula va cholg'u janrlari, maqom turlarini, nota yozuvlarini;
- og'zaki kasbiy mumtoz musiqa va kompozitorlik ijodiyoti asarlarini tahlil etishning asosiy uslublarini egallash ko'nikmalari;
- turli xil xalqlar musiqa san'atining o'zigaxos turdosh jihatlarini;
- milliy musiqa an'alarining mushtarak va o'ziga xos jihatlarini aniqlash malakalarini egallashlari lozim.

Xalq ijodiyoti, yuqorida e'tirof etilganidek, har bir shaxs ijodiyotining yo'nalishini belgilaydi. Ijodiy tarbiya va ta'sir jarayoni yoshlarda ma'naviy barqarorlikni ta'minlaydi, atrofdagi insonlarga nisbatan iliq, ma'rifiy muloqotni ta'minlaydi. Ijodiy tarbiya g'oyaviy ta'sir vositasi. Milliy g'oyani xalq ongiga yetkazishda musiqiy ijod namunalari ham ta'sir vositasilaridan biridir. Chunki, musiqa azaldan

insonlarni mehr-muruvvat, insonparvarlik, do'stlik va sadoqat an'analari ruhida tarbiyalab kelgan. Falsafa qomusiy lug'atda ta'kidlanishicha, "Voqelikni

alohida noziklik, sezgirlik, samimiyluk ruhida in'ikos etishda musiqaning ahamiyati katta, u odamlarning ruhiy holatini, ichki dunyosini, kechinmalarini, his-tuyg'ularini betakror nozik oxang-kuylarda ifodalaydi".

O'quv-tarbiya faoliyatida musiqa o'qituvchisi xalqimiz mumtoz san'atini o'quvchiga ustalik bilan yetkazib bera olashi, insonparvarlik va yuqori ma'naviy salohiyatni o'zida mujassam etishi, ijobiy kasbiy- pedagogik fazilatlarini o'zida shakllantirishi kerak. Musiqa darslarida o'qituvchining kasbiy-pedagogik fazilatlarini umuminsoniy va milliy axloq- odobning qonuniyatlari, tamoyillari, tushunchalari, mezonlaridan tashkil topishi lozim. Chunki, "Shaxsning ko'nglida, ruhiy dunyosida ma'naviyatni barqaror bardavom etadigan, uning har bir o'y-mushohadasi, yurish-turishi, munosabat va hatti-harakatiga quvvat beradigan, buyuk amallarga chorlaydigan manba adabiyot va san'atdir".

Milliy qadriyatlarimizning ahamiyatini ko'rsatish jamiyat miqyosida juda katta daraja va ko'lamga egadir. Ularning barchasini bir boshdan sanab o'tish juda ham katta vaqt va mezonlarni talab etadi. Masalan, ona mehr- muhabbatining naqadar ulkan kuch ekani, bunga aloqador noyob udumlarimiz borligini anglash uchun oddiy ona allasining ta'sirchanligini anglash ham kuchli kechinmalarni uyg'otishi mumkin. Agar biz yoshlarimizda bolalikdan boshlab sog'lom e'tiqod va yuksak dunyoqarashni shakllantira olsak, ular ma'naviyati boy, mustaqil fikrli va oliyjanob shaxslar bo'lib kamolga yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent, "O'qituvchi", 1992. -29.
2. Falsafa qomusiy lug'at. Toshkent, "Sharq", 2004. –B. 357.
3. Rizaev Sh. Iztirob san'ati: adabiyot, teatr, kino, musiqa. -Toshkent, Yangi asr avlodi, 2013. –B. 26.